

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligining 2026-yil 23-fevraldagi  
71-son buyruqiga  
1-ilova



**Oliy ta'lim tashkilotlarining iqtidorli yoshlari o'rtasida  
moliyaviy savodxonlik bo'yicha turkum fan olimpiadalarini  
o'tkazish tartibi to'g'risidagi**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Respublika oliy ta'lim tashkilotlarining iqtidorli yoshlari o'rtasida moliyaviy savodxonlik bo'yicha turkum fan olimpiadalarini (keyingi o'rinlarda – Olimpiadalar) tashkil etish, o'tkazish, ularda ishtirok etish hamda Olimpiadalar g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

2. Olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazishga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik), tegishli oliy ta'lim tashkilotlari hamda Vazirlik tomonidan belgilangan mas'ul oliy ta'lim tashkiloti mas'ul hisoblanadi.

3. Olimpiadalar moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan turkum fan olimpiadalar tizimi bo'lib, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarda iqtisodiy va moliyaviy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Hakamlar hay'ati va Apellyatsiya komissiyasi a'zolari, auditoriya rahbari va nazoratchilari o'z ish joylari tomonidan moddiy rag'batlantiriladi.

**2-bob. Olimpiadalarning maqsad va vazifalari**

5. Olimpiadalarning asosiy maqsadi:

- talabalar o'rtasida iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikni oshirish;
- moliya-iqtisodiyot sohasida iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni aniqlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning intellektual salohiyatini oshirishdan iborat.

6. Olimpiadalarning asosiy vazifalari:

- iqtisodiyot va moliya yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli talabalarni saralash, ularni rag'batlantirish;
- tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- iqtisodiy jarayonlarni baholash va asoslangan qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish;
- halollik, adolat va ochiqlik tamoyillarini keng targ'ib etish.

**3-bob. Olimpiadalarni o'tkazish bosqichlari va fanlar**

7. Olimpiadalar ikki bosqichda o'tkaziladi:

- birinchi bosqich – oliy ta'lim tashkilotlari bosqichi;
  - ikkinchi bosqich – respublika bosqichi.
8. Olimpiadalar quyidagi fanlar bo'yicha o'tkaziladi:
- umumiy iqtisodiyot nazariyasi (A kategoriya – iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, B kategoriya – iqtisodiyotdan tashqari yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar);
  - moliya;
  - soliq;
  - bank ishi;
  - iqtisodiy statistika va ma'lumotlar tahlili.

#### **4-bob. Oliy ta'lim tashkilotlari bosqichi**

9. Oliy ta'lim tashkilotlari bosqichi saralash bosqichi hisoblanadi va tegishli oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda o'tkaziladi.

10. Mazkur bosqichni o'tkazish shakli, tartibi va baholash mezonlari oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan mustaqil belgilanadi.

11. Oliy ta'lim tashkilotlari saralash bosqichi yakunlariga ko'ra eng yuqori natija ko'rsatgan talabalarni belgilangan tartibda respublika bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etadi.

#### **5-bob. Respublika bosqichi**

12. Respublika bosqichi Olimpiadalarning yakuniy bosqichi hisoblanadi hamda Vazirlik tomonidan belgilangan mas'ul oliy ta'lim tashkiloti bazasida o'tkaziladi.

13. Respublika bosqichida Olimpiadalar ikki turda o'tkaziladi va 100 ballik tizim asosida baholanadi:

- birinchi tur – yozma ish (50 ball);
- ikkinchi tur – amaliy qism (50 ball).

14. Yozma ish test savollari, hisob-kitob masalalari va tahliliy savollardan iborat bo'lib, topshiriqlarni bajarish uchun 2 soat vaqt ajratiladi.

15. Amaliy qismda ishtirokchilar iqtisodiy va moliyaviy vaziyatlarga doir keyslar, hisob-kitoblar, jadval va diagrammalar tahlili bo'yicha topshiriqlarni bajaradi.

#### **6-bob. Baholash va natijalarni aniqlash**

16. Respublika bosqichida ishtirokchilarning ishlari tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha malakali mutaxassislardan iborat hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

17. Baholashda quyidagi mezonlarga ustuvorlik beriladi:

- javoblarning to'g'riligi;
- tahliliy yondashuv;
- hisob-kitoblar aniqligi;
- xulosalarning asoslanganligi.

18. Har bir fan bo'yicha eng yuqori ball to'plagan ishtirokchilar g'olib deb topiladi.

#### **7-bob. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi**

19. Respublika bosqichi natijalari bo'yicha ishtirokchilarning ariza va shikoyatlari belgilangan tartibda Tashkiliy qo'mitaning roziligi bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi va e'tirozlar ushbu komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

20. Apellyatsiya komissiyasi qarori yakuniy hisoblanadi va murojaatchiga belgilangan tartibda ma'lum qilinadi.

#### **8-bob. Olimpiada g'oliblarini rag'batlantirish**

21. Olimpiadalar g'oliblari har bir fan bo'yicha I, II va III darajali diplomlar bilan taqdirlanadi.

22. Olimpiadalar g'oliblari va ularning murabbiylariga, shuningdek, hakamlar hay'ati, apellyatsiya komissiyasi va ekspertlarga nisbatan rag'batlantirish miqdorlari hamda to'lash tartibi bakalavriat bosqichidagi Respublika fan olimpiadalari uchun belgilangan miqdor va tartiblar asosida tatbiq etiladi.

23. Oliy ta'lim tashkilotlari g'olib bo'lgan talabalar va ularning ilmiy rahbarlarini belgilangan tartibda qo'shimcha rag'batlantirishi mumkin.

#### **9-bob. Yakuniy qoidalar**

24. Olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Ushbu Nizom talablari Olimpiadalarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etuvchi barcha tomonlar uchun majburiy hisoblanadi.



## **Moliyaviy savodxonlik bo'yicha turkum fan olimpiadalarini fanlar kesimida o'tkazish xususiyatlari**

Mazkur ilova moliyaviy savodxonlik bo'yicha turkum fan olimpiadalarini o'tkazishda fanlar kesimida ayrim metodik xususiyatlarni belgilash maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, Olimpiadalarni o'tkazish to'g'risidagi umumiy Nizomning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fanlar kesimida Olimpiadalarni o'tkazish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

### **1) Umumiy iqtisodiyot nazariyasi**

Olimpiada ikki kategoriya bo'yicha o'tkaziladi:

- **A kategoriya** – iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar o'rtasida o'tkaziladi;
- **B kategoriya** – iqtisodiyotdan tashqari yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar o'rtasida o'tkaziladi.

Topshiriqlar iqtisodiy tushunchalar, asosiy qonuniyatlar va tahliliy fikrlashni aniqlashga qaratiladi.

### **2) Moliya**

Olimpiada ikki kategoriya bo'yicha o'tkaziladi:

- **A kategoriya** – moliya yo'nalishi bo'yicha umumiy nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni aniqlashga qaratilgan.
  - topshiriqlar davlat va korporativ moliya, shuningdek, moliyaviy hisob-kitoblar va qaror qabul qilish jarayonlarini qamrab oladi.
  - amaliy qismda moliyaviy vaziyatlar (keys) asosida tahlil topshiriqlari berilishi mumkin.
- **B kategoriya** – Xalqaro moliyaviy xavfsizlik olimpiadalarida ishtirok etish uchun istiqbolli talabalarni saralash va tayyorlashga qaratilgan maxsus yo'nalish hisoblanadi.
  - topshiriqlar moliyaviy xavfsizlik, iqtisodiy xavfsizlik, risklarni baholash hamda noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlashga doir vaziyatli masalalarni qamrab oladi;
  - baholash xalqaro olimpiadalarda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarga yaqinlashtirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi;
  - topshiriqlarni bajarish tili sifatida rus tilidan foydalanilishi mumkin;
  - amaliy bosqichda keys-topshiriqlar, tahliliy savollar va qisqa yozma javob shakllari qo'llanilishi mumkin.

### **3) Soliq**

- Topshiriqlar soliq tizimi, soliq munosabatlari va soliq madaniyatiga oid bilimlarni aniqlashga qaratiladi.
- Amaliy topshiriqlarda soliq hisob-kitoblari va vaziyatli masalalar qo'llanilishi mumkin.

#### **4) Bank ishi**

– Topshiriqlar bank tizimi, bank operatsiyalari va moliyaviy vositachilik faoliyatiga oid asosiy bilimlarni qamrab oladi.

– Amaliy qismda bank faoliyati bilan bog‘liq vaziyatli masalalar berilishi mumkin.

#### **5) Iqtisodiy statistika va ma’lumotlar tahlili**

– Topshiriqlar statistik ma’lumotlar bilan ishlash, jadval va diagrammalarni tahlil qilish hamda xulosa chiqarishga yo‘naltiriladi.

– Murakkab matematik hisob-kitoblarsiz, amaliy tahlil ko‘nikmalariga ustuvorlik beriladi.

Fanlar kesimida Olimpiadalarni o‘tkazish xususiyatlari Olimpiadalarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida yagona yondashuvni saqlagan holda, har bir fan yo‘nalishining o‘ziga xos metodik jihatlarini inobatga olishga xizmat qiladi hamda topshiriqlarni ishlab chiqish, baholash mezonlarini belgilash va amaliy bosqichlarni tashkil etishda uslubiy asos sifatida qo‘llaniladi.